

CHAKMON - POLVONLAR LIBOSI

Namangan Viloyati tarixi va madaniyati

davlat muzeyi ilmiy xodimi

Yigitaliyeva SH

Chakmon sharq xalqlarining qadimiy liboslaridan biri . uni tikish ayniqsa, Markaziy osiyo xududida keng rivojlangan bo'lib , san'at darajasiga ko'tarilgan. Yurtimizda chakmonlar astarli ,astarsiz ,bosma ,to'qima ,mirzoyi, guldo'zi, sinoyi, qurama kabi turlarga bo'lingan .

Bosma chakmonlar asosan tuya va qo'ylarning mayin junidan tayyorlanadi. U chevarlardan ham jismoniy , ham aqliy jihatdan katta mehnatni talab qiladi. Birinch navbatda , chakmon uchun alohida jun turini tanlab olish kerak. Suvda yuvim tozalangan jun mahsus taroqda taralib, savoqdan o'tkaziladi . Tayyorlangan jun gulsiz toza sholcha ustiga yoyilib ,turli naqshlar bilan bezatiladi. Shundan so'ng sholchaga o'rab ,qatlamlar buzilib ketmasligi uchun gulsiz chilvir bilan maxkam bog'lanadi. Keyi uni bo'yra yoki taxtakachlar ustiga yoyib,suv quyib,bilaklar yordamida uch-to'rt soat davomida pishitiladi. Birinchi marta pishitilgach, o'ramdan olib quritiladi . So'ngra qayta o'rab oldingiga qaraganda issiqroq suvda pishitiladi . Nixoyat , yaxshi pishganiga ishonch xosil qilingach bichiladi va tikish jarayoniga o'tiladi . Shuningdek , to'qima chakmon tayyorlash jarayoni ham o'ziga xos . Uning yelka qismiga gulli kashtalar yoki geometrik shakllarni tikish mumkin . Qoqma (janda)chakmon ham shu usulda qilingan . Sinoyi chakmon kukmdorlar , martabali kishilarga mo'ljallangan bo'lib , kalta yengli qilib tayyorlangan . Bunday chakmonlar Husayn Boyqoro , Alisher Navoiy , Bobur Mirzo zamonlarida ham rasm bo'lgan . Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi 3-etaj tarix bo'limini o'zbek uyida joylashtirilgan ekispozitsiyada ham beqasam to'n kiygan o'zbek otaxonini ko'rishimiz mumkin . bundan tashqari muzeyning shu tarix bo'limida ekispozitsiyaga

qo'yilgan XIX asrga tegishli arova ustida ham xon hamda oddiy xalq kundalik turmushida kiyib foydalangan chakmonlarni ko'rishimiz mumkin . xozirda chakmonlar kiyish birmuncha kamayib ketayotgan bir paytda xar xil turdagi chakmonlar muzey ekispozitsiyasida xalqqa ,yosh avlodga tarixdan bir lavha sifatida o'zini namoyon qilmoqda . Lekin quvonarli jihati yurtimizda chakmon tikish an'analari bugun ham davom etmoqda.

CHAKMON — ustki

kiyim turi; erkaklarning oldi ochiq qishki to'ni. Jun matodan tikiladi. Barlari old etak qismiga qo'shimcha trapesiyasimon kiyiq qo'shilishi hisobiga birbiriga ustmaust kirib turadi, uchburchak bo'yin o'miziga yoqa o'rnatiladi, eng uchi tomon torayib boradi. Chakmonning qo'ltiq osti (xishtak) qismi ochiq qoldirilgan. Chakmon ham to'n kabi yoqa, bar, etak chetiga jiyaklar qo'yib bezatilgan. Bahor, kuzda yaktak ustidan, sovuq oylarda paxtali to'n, po'stin ustidan kiyiladi. Xorazmda chap barlar o'ng bar ustini yopib turgan. Yaylovlarda hozir ham kundalik kiyim sifatida kiyiladi. Bu hududsa movut to'nlar — chakmon, sholchakmon, yaktak singari astarsiz tikilgan. Jun mato ensiz bo'lgani sababli bitta Chakmonga 25 metrgacha mato sarf qilingan. Ular, asosan, och jigarrang tuya junidan bo'lib, 2 andazali yoki 3 andazali bichiqsa tikilgan, ya'ni yon bo'lak tarzli yoki tarzlar qo'shilmay tikilgan. Samarqand—Buxoro muzofoti movut Chakmonlari, asosan, qo'y juni matosidan tayyorlanganligi tufayli, sidirg'a och sariqyoki qora tusli bo'lgan. Shol Chakmon (tuya junidan tayyorlangan), movut Chakmon (fabrika movutidan tayyorlangan) lar qimmat sotilgan, asosan, o'ziga to'q, boy aholi sotib olgan. Chakmon oddiy to'nlar singari bichilgan, ya'ni 3 andazali to'g'ri Bichiqda bo'lib, barlar oldiga kiyiklar solingan. Jiyaklar bilan bezatilgan. Farg'ona — Toshkent muzofotida qo'y junidan to'qilgan movut Chakmonlar — qoqma Chakmon deyilgan. Eng arzon movut Chakmonlar past navli aralash matolardan tikilgan (ko'k Chakmon). Qor yomg'irlarda bo'kib qolmaslik uchun ko'pincha qaynoq suvga bo'ktirilgan. Chakmon matosi to'qilishiga qarab farqlangan. Asosan, ko'kish rangli bo'lgan, bichig'i esa paxtali chopon, to'nlar kabi 3 andazali to'g'ri bichiqsa bo'lgan. Hozirgi kunda Chakmonlar kundalik kiyimlar qatoridan joy olgan



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev N. San'at tarixi. 2t-T.; «San'at» 2001, 89-b.
2. Qurbanova Y. Amaliy san'at buyumlariga badiiy ishlov berishda turli ranglardan foydalanish. BMI. Toshkent – 2014, 104-b .
3. B.Qurbonov, G.Qurbanova Texnologiya Va Dizayn Toshkent -2020, 246-b
4. Sadikova N. O'zbek milliy kiyimlari: XIX–XX asrlar.
– T., 2006.
5. Malikova S.S. Tasviriy san'at tarixi. – T., 2008.
6. Abdullayev N.U. San'at tarixi. 2-tom. – T.: «O'qituvchi»